

IQBOL MIRZO SHE'RIYATINING LINGVISTIK TABIATI

Oripova Parvina Valisherovna

Buxoro davlat universiteti Filologiya fakulteti

4-bosqich talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Iqbol Mirzo she'riyatining o'ziga xos jihatlari o'rganilgan. Shuningdek, fonetik-stilistik vositalarning qator namunalari keltirilgan. Shoir she'rlarida undosh tovushlarning alohida ahamiyat kasb etganligi va o'ziga xos ritm va temp yaratilganini guvohi bo'lamiz.*

Kalit so'zlar: *Fonetik-stilistik vositalar, emotsional ta'sir, assonans, ritm, temp, fonografik vositalar, onomatopeya*

Iqbol Mirzo zamonaviy o'zbek adabiyotining zabardast vakilidir. Uning she'rlari o'ziga xos nozik tuyg'ular, milliy bo'yoqlar, o'zbekona ohang va falsafa bilan yo'g'rilgan. Xususan, Iqbol Mirzo she'riyati haqida adabiyotshunos olim Umarali Normatov shunday yozadi: "Bir qarashda, Iqbol she'rlari sho'x-shodon, o'ynoqi misralardangina yaralganday tuyiladi. Biroq ular zamiriga razm solsangiz, o'sha sho'x-shodon, o'ynoqi misralar qanotida shoirning qalb tug'yonlari, armon to'la alamli o'y-mushohadalari yog'ilib turganligiga amin bo'lasiz. Shuningdek, she'rlarining leksik qatlamida ona, vatan, muhabbat, umid, hayot, vaqt kabi umumxalq tilidagi soda so'zlar bilan birga badiiy ma'nodorlikka ega ko'chma birliklar keng qo'llanadi. Bu esa shoir tilining ixcham, tasviriy va ta'sirchan bo'lishini ta'minlaydi. Sintaktik qurilishdagi takrorlar, parallel konstruksiyalar va emfativ birliklar esa semantik yukni kuchaytirib, she'rlarning umumiy ritmik-estetik tuzilishini mukammal qiladi. Zamonaviy o'zbek poeziyasida badiiy obrazlilik va poetik ta'sirni kuchaytirishda fonetik-stilistik vositalar, jumladan alliteratsiya, muhim o'rin tutadi. Ma'lumki, alliteratsiya bu – she'rda, jumlada, bandda va qisman nasriy asarlarda ham bir xil undosh tovushlarning takrorlanishi. Iqbol Mirzo she'rlarida undosh tovushlarning takrori nafaqat poetik musiqiylikni oshiradi, balki ichki monologni kuchaytiradi, obraz shakllantiradi, emotsional ta'sirni oshiradi, misralarda ritm va temp yaratadi.

"Jonim" she'ridan olingan quyidagi misrada "k" undoshining takrori:

Ko'rgan kun, ko'rgan kun, Qiyofasiz yuzlab yuzlar bilan yuzlashdim..

Bu yerda k tovushi: ritmni kuchaytiradi, o'ziga xos "qattiq" ovoz orqali ruhiy keskinlikni ifodalaydi, lirik qahramonning og'riqli kechinmalarini tinglovchiga yetkazadi. Shuningdek, "yuz", "yuzlashdim" so'zlaridagi z tovushi takrori: misradagi "yuzma-yuz kelish", "ruhiy qarama-qarshilik" obrazini kuchaytirgan, ichki monologni dramatiklashtirgan.

“Aza” she’ridan:

Ustunga yuz bosib, yig‘laydi chopon...

Bu misrada “y” tovushining takrori: og‘ir qayg‘u ritmini yaratadi, jisimsiz choponning “yig‘laganidek” jonlanishini ta’minlaydi, o‘quvchida dramatik taassurot uyg‘otadi.

“Birinci sevgi” she’ridan:

To‘rt fasl bahor edi,

To‘rt taraf gulzor edi.

Men boy edim, dilimda

Bir qo‘shig‘im bor edi.

Bu yerda t tovushining takrori: lirik subyekt uchun ishqning “taxt kabi mustahkam” va butun borliqni qamrab olgan holatini ko‘rsatadi, hayotiylik va musiqa temptini oshiradi.

Shoirning “Onajon” she’rida ham o‘ziga xos uslub va ohang mavjud

Goho sizning borligingiz unutdim,

Yo‘llarimda zorligingiz unutdim.

Umidlari kesilgan bu dunyoda

Yolg‘iz umidvorligingiz unutdim

G‘animatim, omonatim – onajon.

Ganimatim, omonatim – onajon.

Oxirgi misradagi “m – n” undoshlarining tiniq takrori: onaga nisbatan mehr va shukronalik singgan qalb iftixorini ifodalaydi, fonetik yumshoqlik orqali mehr to‘lqinlarini yaratadi. Shuningdek, she’rda ko‘proq “i”, “o”, “a” unlilari qayta-qayta ishlatilgan. Masalan, borligingiz, unutdim, yo‘llarimda, zorligingiz, umidvorligingiz. Bu unli takrorlari she’rga mayin ohangdorlik, ritm beradi. Badda misralarning ohangdorligi “-ingiz” qo‘shimchasi bilan mustahkamlangan. Bu qo‘shimcha takrorlanishi ona obraziga yo‘naltirilgan hurmatni kuchaytiradi. Shoir ba’zan hayotning shiddati bilan ona borligini unutib qo‘yganini, ammo haqiqiy umid, mehr, dalda faqat onadan kelishini ta’kidlaydi. Ona - uning eng katta boyligi.

Muhabbatsiz kechdi bu visol,

Men murodsiz maqsadga yetdim

Tuni bilan yalindi ayol,

Kelaman deb aldadim - ketdim

Men murodsiz maqsadga yetdim.

Ushbu misrada m va d tovushlarining takrori: kalomni mos ritmga soladi, “yetdim”, “ketdim” kabi qofiyaviy parallelizm bilan uyg‘unlik hosil qiladi.

Badiiy nutqda fonetik xususiyatlarning ifodalanishi, xususan tovush takrori, alliteratsiya va assonans poetik matnning semantik va estetik qiymatini oshiruvchi muhim lingvostilistik vositalardan hisoblanadi. Ushbu vositalar she’rning musiqiyliги, ritmikasi hamda emotsional

ta'sirini shakllantirishda alohida o'rin tutadi. Iqbol Mirzo she'riyatida ham fonografik vositalar keng va maqsadga muvofiq qo'llanadi. Fonografik vositalar – bu she'riyatda tovushlar orqali badiiy ta'sir yaratadigan usul, ya'ni shoir ma'noni kuchaytirish, ohangdorlik va ritm berish uchun turli tovush takrorlaridan foydalanadi. Bir so'z bilan aytganda, fonografik vositalar she'rning badiiy tovush usullaridir. Eng ko'p qo'llaniladigan fonografik vositalar: alliteratsiya, assonans, onomatopeya va boshqalar. Ma'lumki, onomatopeya – bu tabiatdagi tovushlarni so'z orqali taqlid qilib berish. Ya'ni biror tovushni eshitgandek qilish uchun shoir yoki yozuvchi aynan o'sha tovushga o'xshash so'zlardan foydalanadi. Masalan, shaldir-shuldur – suvning tovushi, g'o'ng'illash – ari yoki chivin tovushi. Shoirning **“Hayot”** nomli she'ridan olingan quyidagi misrada fonografik vositalar o'z aksini topgan.

“Hayot – hayhot,
Lahzalik baxt va hayot.
Sinov, sinovlar,
Omonat kunlar...”

Ushbu parchada **“h”** undosh tovushi va **“a”** unli tovushining tizimli takrori alliteratsiya va assonansni vujudga keltirgan. Bu takrorlar she'rdagi umumiy ovoz tizimini uyg'unlashtirib, ritmik ohangdorlik va musiqiylikni kuchaytiradi. Fonografik vositalarning bunday qo'llanishi: she'rning emotsional-ekspressiv ta'sirini oshiradi, lirik qahramonning ruhiy-hissiy holatini yanada kuchliroq ifodalashga xizmat qiladi, matndagi ma'no qatlamlarini ovoz orqali semantik bog'liqlikka soladi. Shunday qilib, Iqbol Mirzo she'rlarida fonetik takrorlar nafaqat poetik shaklni bezab, balki badiiy mazmunni chuqurlashtiruvchi va o'quvchida tinglovchi hissiyot uyg'otuvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Iqbol Mirzo she'riyatida fonografik vositalar – alliteratsiya, assonans, tovush takrori va fonetik parallelizm badiiy mazmunni kuchaytirish, obrazni jonlantirish hamda lirik qahramon kechinmalarini emotsional-estetik jihatdan talqin qilishda muhim o'rin tutadi. Shoir she'rlarida muayyan tovushlarning takrorlanishi faqat ritmik ohang yaratibgina qolmay, balki ma'no yukini kuchaytiruvchi funksional vazifani ham bajaradi. Ma'lumki, funksional vazifa she'r ichidagi badiiy vositalar (so'zlar, tasvirlar, tovushlar, qofiya, uslub, obrazlar) qanday maqsadda xizmat qilishi, ya'ni ularning she'rdagi roli, vazifasi degan ma'noni anglatadi.

Shoirning quyidagi misralarida:
“Kiymaning meni, kiymaning meni,
Kuyganlar kam-mi?
Ko'nglim to'ymay kuyarim,
Kuyganlarning kam-mi?”

(“Qancha?”, 24-bet)

“k” undoshining takrorlanishi asosiy semantik yukni belgilaydi. “K” tovushi portlovchi va til orqa undoshi bo‘lib, uni talaffuz qilish kuchli artikulyatsion bosimni talab qiladi. Ushbu tovushning muntazam takrorlanishi matnning ritmik-intonatsion qurilmasini belgilaydi, she’rdagi keskinlik, ichki zo‘riqish va drammatizmni kuchaytiradi.

Keltirilgan misralarda “kuy-”, “kuyin-”, “kuyib”, “kuyinchak” kabi bir ildizdan yasangan bir qator leksemalar “yonish”, “ezilish”, “iztirob” kabi ruhiy jarayonlarni obrazli idrok etish imkonini yaratadi. Bu esa lirik obraz – muhabbat sabab iztirob chekkan ayolning ruhiy olamni ta’sirchan ifodalashga xizmat qiladi.

Shuningdek, “kam-mi” so‘zining takrorlanishi semantik-emfativ funksiyani oshiradi, ya’ni so‘zning ma’nosini kuchaytirish va uni alohida urg‘u bilan aytish demak. Odatiy nutqda kengroq sintaktik birlik bilan ifodalanadigan mazmunni shoir birgina leksema orqali kuchli ekspressivlikka ega shaklda beradi. “K” va “m” undoshlarining kombinatsiyasi lirik nutqda urg‘u, ichki monolog va kuchli psixologik holat yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, Iqbol Mirzo she’riyati o‘zining boy lingvistik tabiati bilan o‘zbek adabiyotida alohida o‘rin egallaydi. Uning poetik nutqi fonetik, leksik va sintaktik darajalarning uyg‘un holda qo‘llanishi orqali yuksak badiiy-estetik ta’sir kuchini yaratadi. Umuman, Iqbol Mirzo she’riyatining lingvistik tabiati- sodda til, kuchli emotsional bo‘yoq, musiqiylik, obrazlilik va badiiylilikning uyg‘unlashuvi bilan xarakterlanadi. Shoir ana shu lingvistik vositalar orqali o‘quvchiga chuqur ta’sir ko‘rsatadigan, hayotiy, samimiy va o‘qiladigan she’riyat yaratgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Iqbol Mirzo . Asarlar to‘plami – Toshkent : Sharq, 2015
2. Mamajonov Z. Badiiy matn lingvistikasi. – Toshkent 2008
3. To‘xtayev B. Poetikaning nazariy asoslari. – Toshkent : Akademnashr, 2014
4. Rasulov B. Zamonaviy o‘zbek poeziyasi tahlili.- Toshkent 2011
5. Toirova G, Norova M., Norova F. Application of Innovative Technologies in Teaching Process.
6. Oripova P., Minnatdorchilik nutqiy aktining ijtimoiy-madaniy xususiyatlari.Vol 3, 2024
7. Oripova P., Minnatdorchilik sarkazm sifatida Vol 4, 2024